# Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi



**Saburov Umar Ataxanovich**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri**

| | |
|---|---|
| **Manzil:** | Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Nukus shahri, A. Dosnazarov koʻchasi, 64-a uy |
| **Telefon:** | (0 361) 770-60-19 |
| **E-mail:** | qoraqalpoqiston@mehnat.uz |
| **Veb sahifasi:** | qqr.mehnat.uz |
| **Qabul kunlari:** | seshanba 15-00 dan 18-00 gacha |

**Qoraqalpogʻiston Respublikasi Mehnat vazirligi**
Quyidagilar vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:
mintaqalar boʻyicha mehnat bozorini shakllantirishda samarali siyosatni amalga oshirish, demografik omillarni, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va tarkibiy qayta tashkil etishning istiqbolli yoʻnalishlarini etiborga olgan holda bandlikning yangi shakllarini keng tatbiq etish hisobiga aholi bandligining oʻsishini taʼminlash;
demografik oʻzgarishlar va kadrlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bogʻliq oʻzgarib borayotgan talablarni hisobga olgan holda mehnat, ish bilan bandlik va aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash sohasidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va yanada takomillashtirish boʻyicha takliflar kiritish;
ishga joylashishga muxtoj, ish bilan band boʻlmagan aholiga kasbiy qayta tayyorlash va ishga joylashtirish boʻyicha sifatli hizmatlar koʻrsatish;
aholining ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoya qilish boʻyicha amaliy chora-tadbirlarning amalga oshirilishini taʼminlash, kamxarj oilalar, nogironlar va yolgʻiz keksalarga yordam koʻrsatishda tabaqalashtirilgan tarzda va aniq yondashuvni koʻchaytirish;
mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan qattiq nazoratni amalga oshirish, mehnat munosabatlarini, moddiy ragʻbatlantirish va mehnatni muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.
Vazirlik oʻziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:
Mehnat bozorini shakllantirish va aholini ish bilan taʼminlash sohasida:
Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda respublika va hududlarning demografik rivojlanish prognozlarini amalga oshiradi, aholini ish bilan samarali taʼminlash chora-tadbirlari kompleksini asoslangan holda mehnat resurslarining prognoz balanslarini ishlab chiqadi;
respublika va tuman(shahar)larning mehnat resurslari soni va tarkibini oʻrganadi hamda uni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqadi;
aholining ish bilan bandlik darajasi va tarkibini eng toʻliq va xolisona baholashni taʼminlash, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni aniqlash maqsadida mehnat bozorining ahvoli monitoringini tashkil etadi;
hududlarning demografik rivojlanish prognozlari asosida aholini ish bilan taʼminlash yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;
ishsizlarni hisobga olishni tashkil qiladi;
oʻrta mahsus, kasb xunar taʼlimi boshqarmasi bilan birgalikda oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari bitiruvchilarining ish bilan taʼminlanishini tadqiq etadi hamda ular natijalari asosida ishchi kadrlar va mutaxassislarning kasb tayyorgarligi yoʻnalishlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;
aholini ish bilan taʼminlash, yoshlarni, ishdan boʻshab qolgan xodimlarni va aholining boshqa toifalarini ishga joylashtirish, shuningdek, boʻsh ish joylari boʻyicha axborotlarning shakllantirilishini va tahlil etilishini tashkil qiladi;
shaxsiy yordamchi va dexqon xoʻjaliklarida qoramol oʻstirish bilan band boʻlgan shaxslar hisobini amalga oshiradi;
yoshlarning va ish bilan band boʻlmagan aholining kasb - hunarga xohishini va mehnat yoʻnalishlarini aniqlash uchun sotsiologik tadqiqotlar oʻtkazilishini tashkil etadi;
manfaatdor vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda ish oʻrinlari tashkil etish dasturlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va amalga oshirishda qatnashadi;
ish bilan taʼminlash va ish oʻrinlari tashkil etish hududiy dasturlarini ishlab chiqishda hokimliklarga metodik va amaliy yordam koʻrsatadi;
iqtisodiyotni isloh qilish va tarkibiy qayta tashkil etish davomida, shuningdek xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning inkirozga uchrashi va tugatilishi natijasida ishdan boʻshab qoladigan xodimlarni ish bilan taʼminlash va ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilishini muvofiqlashtiradi;
aholini oʻzini oʻzi ish bilan taʼminlashini ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlash yuzasidan takliflar tayyorlaydi;
davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlari va tashkilotlarga korxonalar hamda fuqarolar oʻrtasida kooperatsiyalash asosida kasanachilikni kengaytirish masalalarida koʻmaklashadi;
ishsizlar uchun xaq toʻlaniladigan jamoat ishlari tashkil etilishini taʼminlaydi, oʻrta maxsus, kasb - xunar boshqarmasi bilan xamkorlikda ishsizlarni kasbga tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi.
Aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ijtimoiy taʼminlash sohasida:
muhtoj oilalar, pensionerlar, nogironlar, yolgʻiz keksa fuqarolarga koʻrsatilayotgan ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashning tabaqalashtirilganligi va aniqligini kuchaytirishga yoʻnaltirilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir takliflar tayyorlashda qatnashadi;
manfaatdor vazirliklar, idoralar tashkilotlar va muassasalar bilan birgalikda pensionerlar, nogironlar va yolgʻiz keksa fuqarolarga qonun xujjatlarida belgilangan imtiyozlar, sanatoriya va kurortda davolanishga yoʻllanmalar va maxsus xarakatlanish vositalari berilishida qatnashadi;
Ish bilan taʼminlashga koʻmaklashuvchi Davlat jamgʻarmasi mablagʻlaridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni taʼminlash ishlarini tashkil etadi;
ishsizlar va ularning oila aʼzolarini Ish bilan taʼminlashga koʻmaklashuvchi Davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobiga ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashning taʼminlanishini tashkil etadi;
eng kam ish oʻrinlarini ajratilishi va ularning ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar bilan butlanishi masalalarini oʻrganadi va tahlil etadi;
dexqon va fermer xoʻjaliklarida ishlayotgan fuqarolar, shuningdek tadbirkorlar uchun belgilangan ijtimoiy kafolatlar va ijtimoiy muxofaza chora -

tadbirlarini roʻyobga chiqarilishini tashkil etadi.
Mehnat munosabatlarini tartibga solish mehnatni tashkil etish, unga xaq toʻlash shartlarini va uni muhofaza qilishni takomillashtirish sohasida:
mehnat, aholini ish bilan taʼminlash va ijtimoiy muhofaza qilish boʻyicha normativ-xuquqiy xujjatlarga rioya qilinishi ustidan belgilangan tartibda davlat nazoratini amalga oshiradi;
yoshi boʻyicha imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish xuquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va koʻrsatkichlar roʻyxatlarini tadbiq qilish tartibi toʻgʻrisida tushuntirishlar beradi;
mehnat sharoitlariga koʻra ishchi joylarini atestatsiyadan oʻtkazishda metodik yordam koʻrsatadi.
Ijtimoiy xizmat koʻrsatish sohasida:
ijro etuvchi tuman, shahar xokimiyat organlari va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari ishtirokida yolgʻiz keksa fuqarolar, nogironlar va davlatning qoʻllab-quvvatlashga muhtoj boʻlgan boshqa aholi guruhlariga ijtimoiy-maishiy xizmat koʻrsatishni tashkil etadi;
ijtimoiy taʼminot muassasalarida (“Muruvvat” uylarida, sanatoriyalarda) yashayotgan keksa fuqarolar va nogironlarga maishiy, tibbiy va madaniy xizmat koʻrsatishni tashkil qiladi, ushbu muassasalarning moddiy - texnika bazasi mustahkamlanishini taʼminlaydi;
yolgʻiz keksa fuqarolarga ijtimoiy yordam koʻrsatish xizmatlarining kompleks tarmoqlarini tashkil etadi va ularning ishini nazorat qiladi;
aholiga ijtimoiy yordam berish dasturlarini moliyalashtirish uchun mablagʻlar jalb etish ishlarida nodavlat, notijorat tashkilotlarining va boshqa tashkilotlarning oʻzaro hamkorlik qilishini taʼminlaydi;
yolgʻiz keksa fuqarolar, pensionerlar va nogironlarga ijtimoiy yordam koʻrsatuvchi nodavlat xizmatlar tashkil etishga koʻmaklashadi hamda ularning ishi ustidan nazoratni taʼminlaydi;
oʻziga qarashli tashkilotlarning aholiga ijtimoiy yordam koʻrsatish dasturlarini moliyalashtirish extiyojlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan ishlarini, shu jumladan ularning tijorat faoliyatini muvofiqlashtiradi.
Nogironlarni reabilitatsiya qilish sohasida:
nogironlarni reabilitatsiya qilish ishlarini muvofiqlashtiradi;
infratuzilma obʼektlarining nogironlar va keksa fuqarolar uchun qulayligini taʼminlovchi shaharsozlik sohasida davlat siyosatini shakllantirishda qatnashadi;
nogironlar uchun ish oʻrinlari tashkil etishda va ularni ishga joylashtirishda nogironlarning nodavlat va boshqa tashkilotlarga yordam beradi;
nogironlarning mehnatidan foydalanish boʻyicha ixtisoslashtirilgan korxonalarni tashkil etish va rivojlantirishga, mehnatning kasanachilik turlarini va ish bilan taʼminlashning boshqa shakllarini rivojlantirishga koʻmaklashadi;
nogironlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bosqichi sifatida ularning jismoniy tarbiya va sport harakati rivojlantirilishiga koʻmaklashadi;
aholiga protez-ortopediya yordami koʻrsatishni tashkil etadi;
nogironlarni protez-ortopediya buyumlari va harakatlanish vositalari bilan taʼminlash tartibini belgilaydi.
Moliya xoʻjaligi faoliyati sohasida:
Vazirlik tizimida reja-moliya ishlarini tasarrufidagi tashkilotlar tomonidan oʻtkaziladigan tadbirlarni belgilangan tartibda tashkil etadi;
aholiga ijtimoiy yordam berishning har xil turlarini tashkil etishni iqtisodiy jihatdan asoslab beradi;
tasarrufidagi tashkilotlarning moliya - xoʻjalik faoliyati boʻyicha balanslar va hisobotlarni koʻrib chiqadi;
davlat markazlashtirilgan kapital qoʻyilmalaridan tasarrufidagi tashkilotlar tomonidan samarali foydalanishini taʼminlaydi, Vazirlik tizimidagi obʼektlarni qurish va rekonstruksiya qilish boʻyicha istiqbolli dasturlarning ishlab chiqilishini tashkil etadi.

*Ko'rib chiqildi:*

Izlash

- ⌂
- 品
- ✉

- Vazirlar Kengashi
- Statistik va tahliliy maʻlumotlar
- Vazirliklar va idoralar
- Shahar va tuman hokimliklari
- Hujjatlar
- Respublika mehmonlariga
- Elektron hukumat
- Interaktiv davlat xizmatlar